


O‘ZBEKISTONDA MONITORING, HISOBOT BERISH VA TEKSHIRTISH MRV TIZIMINI JORIY ETISH

Mirzayev Bexruz Abdulla o‘g‘li
I. Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda mamlakatimiz atmosfera havosini **haddan tashqari ifloslanishi** kabi muammoga duch kelmoqda. Shuningdek, issiqxona gazlari miqdorining atmosfera havosida haddan tashqari ko‘payishi natijasida yer havosining harorati tobora ko‘tarilmoqda. 2011-2020 yillar insoniyat tarixidagi eng issiq o‘n yillik bo‘ldi. 1980 yildan beri harorat har yili ko‘tarilib, issiqlik bilan bog‘liq kasalliklarning ko‘payishiga va ochiq havoda ishlashda qiyinchiliklarga olib keldi. Qolaversa, suv tanqis hududlarda yashovchi aholining turmush sharoiti ham yomonlashdi. Suv tanqisligi qishloq xo‘jaligiga ham ta‘sir qiladi va natijada hosilning yo‘qolishi tufayli oziq-ovqat xavfsizligi tobora qiyinlashib bormoqda. Bundan tashqari, cho‘llanish natijasida ekin maydonlarining miqdori kamayib, yerlarning degradatsiyasi kuchayadi, cho‘l maydonlarining ko‘payishi natijasida havoga ko‘p miqdorda qum zarralari ko‘tarilib, havoning ifloslanishi ortadi.

Atrof-muhit omillari tufayli dunyoda har yili 13 million kishi vafot etadi. Iqlim o‘zgarishi qashshoqlikka moyil bo‘lgan odamlarning yashash joylari va yashash sharoitlarini yanada yomonlashtiradigan suv toshqinlaridan qutula olmaydi [1]. Bu muammolarni kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri issiqxona gazlarini atmosferaga tashlanishi hisoblanadi. 2017 yilgi hisob kitoblarga ko‘ra respublikada bir yilda 189 mln. tonna SO₂ ekv. issiqxona gazlari tashlangan [2]. Atmosferaga issiqxona gazlarini tashlanishi qarshi tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmasa ko‘rsatkich Jahon banki guruhi ekspertlarining dastlabki xisob-kitoblarga ko‘ra 2030 yilda 250 mln. gacha 2060 yilga kelib esa 400 mln. tonna SO₂ ekv.ga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2018-yil ratifikatsiya qilingan 2015-yildagi Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazi emissiyasi miqdorini 2010 yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish majburiyatini olgan. Bunda 2010-yilda YAIMning har 1 AQSh dollariga to'g'ri keladigan 4,02 kg.CO2-ekv issiqxona gazi tashlanmasi hajmini 2030-yil yilga borib 2,61 kg.CO2-ekv. hajmigacha qisqartirish majburiyatini olgan. Shuningdek bitim doirasida ushbu ko'rsatkichlar har 5 yilda yangilanib borishi va yanada kattaroq maqsadlar olinishi belgilangan. Parij bitimining 13-moddasiga muvofiq barcha mamlakatlar 2024-yil yakuniga qadar takomillashtirilgan shaffoflik tizimi joriy etishi belgilangan bo'lib, har ikki yilda iqlim o'zgarishi sohasida yumshatish va moslashish choralarini qamrab oluvchi Ikki yillik Shaffoflik hisobotini Birlashgan millatlar tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasiga taqdim etib borilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Milliy shaffoflik tizimi joriy etilmaganligi sababli Parij bitimi doirasida olingan majburiyatlarni bajarishda ko'r-ko'rona harakat qilishga to'g'ri kelmoqda.



Measurement

Reporting

Verification

MRV o'zi nima. Monitoring, hisobot berish va tekshirish (Monitoring, Reporting and Verification - MRV) tizimi bu bizning iqlim o'zgarishiga global javobimiz uchun asosdir.

MRV mamlakatlarga Milliy kommunikatsiyalar, Bienal yangilanishlar kabi xalqaro hisobot talablariga javob berishga imkon beradi. Bu, shuningdek, issiqxona gazlarini qisqartirish sohasidagi say-harakatlarni dunyoning boshqa mamlakatlarga namoyish qilish imkonini beradi. Milliy miqyosda belgilangan past emissiyali rivojlantirish strategiyalari kabi chora-tadbirlar doirasidagi taraqqiyot, hissalar va milliy darajada mos keladigan yumshatish choralari mamlakatlar kengroq iqlim o'zgarishi va barqaror iqtisodiy rivojlanish to'g'risida xabardor qilishlari kerak bo'lgan ma'lumotlar maqsadlarni o'z ichiga oladi. MRV tizimi ma'lum bir iqlim o'zgarishini yumshatuvchi faoliyat natijasida kamaytirilgan issiqxona gazlari tashlanmalarini miqdorini o'lchash uchun ko'p bosqichli jarayonni nazarda tutadi, masalan, o'rmonlarning kesilishi va degradatsiyasi natijasida emissiyalarni kamaytirish, ma'lum vaqt va ushbu topilmalar haqida akkreditatsiyadan o'tkazishga mas'ul bo'lgan uchinchi shaxsga xabar berish imkonini yaratadi

Shuningdek MRV tizimi uglerod birliklari savdosini yo'lga qo'yish uchun asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Issiqxona gazlarini xalqaro savdoga chiqarish uchun amalga oshirilgan loyihalar natijalarni sertifikatlash va uglerod kreditlarini berishda tegishli tekshiruvchiga hisobotlarni taqdim etishda MRV tizimidan foydalaniladi.


Shu bilan birga MRV tizimi Parij kelishuvi doirasida taqdim etiladigan Milliy miqyosda belgilangan hissa (NDC) hamda Yangilangan ikki yillik (BUR) hisobotlarini tayyorlashda va amalga oshirishda markaziy rol o'ynaydi.

Monitoring (Measurement) – Emissiya tendentsiyalarini aniqlash, issiqxona gazlarini kamaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni qayerga yo'naltirish kerakligini aniqlash, kamaytirishni qo'llab-quvvatlashni kuzatish, kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar NDC doirasida rejalashtirilganidek yoki yo'qligini baholash va emissiyalarni qisqartirish samaradorligini tasdiqlash, olingan yordamning ta'sirini baholash va kamaytirishda erishilgan yutuqlarni monitoring qilish hisoblanadi.

Hisobot berish (Reporting) va tekshirish (Verification) – boshqaruv, hisobot berish va erishilgan natijalarning shaffofligini ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun muhimdir.

Nima **monitoring** qilinadi (**Measurement**):

- issiqxona gazlari emissiyasi va yutilishini hajmi;
- emissiyalarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy emissiyalarga nisbatan emissiyalarni kamaytirish (yoki yutilishni yaxshilash) miqdori;
- yumshatish va moslashish, barqaror rivojlanish maqsadlari va tegishli imtiyozlarga erishish yo'lidagi taraqqiyot;
- olingan qo'llab-quvvatlash miqdori (moliya, texnik yordam, texnologiyalar transferi, o'qitish).



*For simplicity, this graphic uses the term "emissions" as shorthand for "emissions and removals."

wri.org/mrv101

WORLD RESOURCES INSTITUTE

Qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha **hisobot beriladi (Reporting)**:

- issiqxona gazlari emissiyalarini va yutilish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar (inventarizatsiya, ikki yillik hisobotlar);

- bazaviy emissiyalar bilan solishtirganda yumshatish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda emissiyaning kamayishi (yoki yutilishining yaxshilanishi) miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar;
- yumshatish choralariga erishishda muvaffaqiyat;
- barqaror rivojlanish maqsadlari, institutsional o'zgarishlar va harakatlar;
- cheklovlar va qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari haqida ma'lumot.

Nima tekshiriladi (**Verification**):

- hisobotda ko'rsatilgan barcha miqdoriy va sifat ma'lumotlari, oqibatlarini yumshatish bo'yicha harakatlar va ularning natijalari, shuningdek olingan va taqdim etilgan yordam;
- ma'lumotlar mamlakat va xalqaro protseduralar doirasida tekshirilishi mumkin.

Xulosa. MRV tizimi respublikada sanoatni dekarbonizatsiya qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni samaradorligini baholash hamda Parij bitimi doirasida olingan majburiyatlarni samarali amalga oshirish uchun yuqori ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tizim joriy etilishi orqali respublikada barcha darajadagi issiqxona gazlari emissiyasini chiqarilishi va yutilishini kuzatish va monitoring qilish imkoniyati yaraladi. Sanoatni dekarbonizatsiya qilishda har bir korxonaga individual e'tibor qaratish va sharoitidan kelib chiqib say-harakatlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, respublikada qisqartirilgan issiqxona gazlarini xalqaro bozorlarda savdosini tashkil qilish uchun ushbu tizim katta ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Parij bitimi doirasida olingan majburiyatlarni bajarishda ko'r-ko'rona harakat qilishni oldi olinadi. Parij bitimi doirasida tayyorlanishi lozim bo'lgan hisobotlarda MRV tizimida mavjud bo'lgan ma'lumotlar va ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida hisobotlar tayyorlanishida ishlatilgan ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga respublikada iqlim o'zgarishiga moslashish va

oqibatlarini yumshatishda qilinayotgan say-harakatlar va ajratilayotgan investitsiyalarni samaradorligini baholash imkoni yaratiladi¹⁴.



“Innovations in Science and Technologies”

¹⁴ 1. BMTning turli manbalariga asoslanib. <https://www.un.org/ru/climatechange/science/causes-effects-climate-change>

2. O‘zbekistonning yangilangan milliy mizyisda belgilangan hissasi hisoboti. 2021/10-22 st./O‘zgidromet/UNDP.